

UDK:622.221

**QUMDARYO SEL TASHLAMA KANALI VA INSHOOTINI HOZIRGI
HOLATINI XARAKTERISTIKASI***Mamarasulov Sobir Raxmonqul o'g'li**“TIQXMMI” MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETIning Qarshi irrigatsiya
va agrotexnologiyalar instituti o'qituvchisi**sobirmamarasulov6@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Qumdaryo sel tashlama kanali haqida ma'lumotlar, hozirgi holati, sel tashlamani suv o'tkazish qobiliyati kanalidagi deformatsiya ishlari keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: kanal, suv tashlama, deformatsiya, kanalning holati, beton qoplama, sel toshqin suvlari.

Аннотация: В данной статье представлены сведения о паводковом русле Кумдарьи, его современном состоянии, пропускной способности паводкового русла и деформационных работах в русле.

Ключевые слова: русло, расход, деформация, состояние русла, бетонное покрытие, паводковые воды.

Abstract: In this article, information about the Kumdarya flood channel, its current condition, the capacity of the flood channel, and deformation works in the channel are presented.

Key words: channel, discharge, deformation, condition of the channel, concrete coating, flood waters.

Umumiy ma'lumot: Chiroqchi tumanida joylashgan Qumdaryo kanalining umumiy uzunligi 17,7 km, suv o'tkazish qobiliyati 25,0 m/sekundni tashkil etib, ushbu kanal orqali Chiroqchi tumanidagi jami 2940,0 gektar maydonlari va aholi tomorqa maydonlari o'qar suv bilan taminlanadi. Ushbu kanal Chiroqchi tumanining Qalqama, Oqoltin, Beshchashma MFYlar hududidan o'tadi. Qumdaryo sel tashlama kanali 1971 yilda qurilgan bo'lib, kanalning umumiy uzunligi 0,800 km, kanal beton qoplama qurilgan. Hozirgi vaqtda kanalni 500 m qismida beton qoplama qolgan, qolgan qismini sel toshqin suvlari o'pirib tashlagan natijada katta jarlik paydo bo'lgan. Mavjud beton qoplama o'pirilgan, singan, cho'kkan yorilgan yaroqsiz holatda. Qumdaryo sel tashlamani suv o'tkazish qobiliyati -65.0 m³/sek. Sel toshqin suvlari asosan Eskianhor va Qumdaryo kanallaridan keladi. Qumdaryo sel tashlama kanali rekonstruksiya qilinmagan. Qumdaryo sel tashlama kanali va inshootini mavjud holati qoniqarsiz holatda. Shuning uchun hozirgi vaqtda Qumdaryo sel tashlama kanali va inshootini rekonstruksiya qilish talab etiladi.

Holati: Qumdaryo sel tashlama kanalini PK0+00 dan PK8+00 gacha qismida kanalning beton qoplamalari o‘pirilgan, singan, cho‘kkan, deformatsiyaga uchragan va yaroqsiz holatda. Sel-toshqin suvlari sel tashlama kanalni 300 m qismini yuvib ketgan va jarlik paydo bo‘lgan.

“Qumdaryo” sel suvlari tashlamasining suv o‘tkazish qobiliyati $40 \text{ m}^3/\text{s}$ bo‘lib, foydalanishga topshirilgandan buyon 52 yil davomida ta‘mirlash ishlari bajarilmaganligi va kapital rekonstruksiya qilinmaganligi oqibatida texnik holati yomonlashib, yaroqsiz holatga kelib qolgan.

“Qumdaryo” sel suvlari tashlamasi beton qoplamalari yemirilishi hamda o‘pirilib kitishi oqibatida tashlama butunlay yaroqsiz holda bo‘lib, bu o‘z navbatida kanalning gidrotexnik inshootiga, kanalga va tashlamaga sel suvlarini ochish imkoni yo‘qligi sababli aholi yer madonlari hamda turar joylariga jiddiy ziyon yetkazishi xovfi mavjud.

Yechimi: Yuqoridagilardan kelib chiqib, Qumdaryo kanalining PK 07+80 dagi Qumdaryo sel suvlari tashlamasida bajarish talab etiladigan ishlar;

			Jami summasi, mln.so‘m
	3		
	3		
Shag‘al qum	3		

Loyiha(obyekt)ning dastlabki qiymati 450 mln.so‘m.

“Qumdaryo” sel suvlari tashlamasi ta‘mirlangandan keyin kanalning gidrotexnik inshootiga, kanalga va tashlamaga sel suvlarini ochish imkoni mavjud bo‘lishi sababli aholi yer madonlari hamda turar joylariga jiddiy ziyon yetkazishi xavfi oldi olinadi.

Qumdaryo kanal suvini “Qumdaryo” daryosi o‘zaniga tashlovchi PK 7+80dagi “Qum daryo” suv tashlama inshootini sel-suvlaridan himoyalash rekonstruksiya qilish;



1-rasm: Qumdaryo daryosi va Qumdaryo kanalining o‘zaro joylashuv xaritasi



2-rasm: Qumdaryo kanalning PK7+80 da joylashgan Qumdaryo daryosiga sel suvlarini tashlovchi Qumdaryo tashlama inshootini bugungi kundagi holati

Muammo: Bahor oylarida qir va adirlikdardan sel suvlari kelib quyilishi natijasida Qumdaryo kanalning PK 7+80 dagi Qumdaryo daryosiga sel suvlarini tashlovchi Qumdaryo tashlama inshooti beton koplamalari va armaturalari o‘pirilib

ketgan bo‘lib, hozirgi kunda ushbu inshootni rekonstruksiya qilish va sel toshqin suvlaridan himoyalash ishlarini olib borish talab etilmoqda.

Yechim: Ushbu holatni bartaraf etish uchun 2500,0 m³ tuproq ishi, 330 m³ tosh ishi, 4,2 tonna metall, 300 m³-beton ishlari uchun jami 450,0 mln.so‘mlik qurilish va rekonstruksiya qilish ishlarini bajarish lozim.

Erishiladigan natija: Sel toshqin suvlarini xavfsiz o‘tkazish imkoni yaratiladi hamda inshootning loyihaviy suv o‘tkazish qobilyati tiklanishi natijasida Qumdaryo kanalining xavfsiz ishlash imkoni yaratiladi hamda ushbu kanal atrofida yashovchi aholining xavfsizligi taminlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bakiyev M., Majidov I., Nosirov B., Xo‘jaqulov R., Yangiyev A., “Gidrotexnika inshootlari” 2-jild Qarshi “Intellekt” nashriyoti 2023 y
2. Majidov J, Fayziyev X, Husanxodjayev O‘, Raxmatov N “Gidrotexnika inshootlari” 1-jild “Ijod pres” Toshkent 2019-yil.
3. Bakiyev M.R., Majidov J., Nosirov B., Xo‘jaqulov R., Raxmatov M. “Gidrotexnika inshootlari” 2-jild. Toshkent: “Ta’lim nashriyoti”, “Iqtisod-moliya”, 2009 y
4. Bakiyev M, Majidov J, Nosirov B, Xo‘jaqulov R, Raxmatov M “Gidrotexnika inshootlari” 1-jild. - Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2008 y.
5. Bakiyev M, Nosirov B, Xo‘jaqulov R “Gidrotexnika inshootlari” fanidan o‘quv qo‘llanma Toshkent-Talqin-2007 yil.
6. Amu-Qashqadaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi ma’lumotlaridan foydalanilgan.

Internet resurslari:

www.ziyonet.uz.

www.edu.uz.

www.ziyo.net

aq.havza@minwater.uz